

The background of the cover is a complex, abstract design. It features concentric circles and arcs in shades of blue and grey. Overlaid on these are various geometric shapes, including rectangles and circles, some of which are outlined in black. Arrows of different sizes and orientations are scattered throughout, suggesting a sense of movement or flow. In the center, there is a prominent orange and yellow circular element that resembles a stylized sun or a gear. Below this central element, there is a cluster of blue squares arranged in a circular pattern. The overall aesthetic is technical and scientific.

SCIENCE AND EDUCATION

ISSN 2181-0842 VOLUME 2, SPECIAL ISSUE 1

MAY 2021

SCIENCE AND EDUCATION

SCIENTIFIC JOURNAL

ISSN 2181-0842

VOLUME 2, SPECIAL ISSUE 1

MAY 2021

SCIENCE AND EDUCATION

SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME #2 SPECIAL ISSUE #1

Executive Secretary

Tusmatova Nozima Inomovna

Editorial board

Z.Yaxshieva

Jizzakh State Pedagogical Institute, Doctor of Chemical Sciences

S.Sangwa

African Leadership University, Doctor of Business Administration

S.Otakulov

Jizzakh Polytechnic Institute, Doctor of Physical and Mathematical Sciences

M.A.S.Khasawneh

King Khalid University, Special Education, PhD

Sh.Akramova

Military-technical Institute of the National Guard, Doctor of Pedagogical Sciences

E.M.Colocassides

College of Tourism & Hotel Management, Doctor of Science in Communication

B.Sultonov

Tashkent Pharmaceutical Institute, Doctor of Technical Sciences

A.Sidiqov

Tashkent Institute of Chemical Technology, Doctor of Chemical Sciences

B.Kucharov

Institute of General and Inorganic Chemistry of the Academy of Sciences, Doctor of Technical Sciences

I.Eshmetov

Institute of General and Inorganic Chemistry of the Academy of Sciences, Doctor of Technical Sciences

M.Abdullaev

Andijan State University, Doctor of Historical Sciences

Z.Tojjeva

National University of Uzbekistan, Doctor of Geographical Sciences

N.Jiyanova

Tashkent Financial Institute, Candidate of Economic Sciences

X.Qobulov

Tashkent Financial Institute, Candidate of Economic Sciences

A.Nabiev

Tashkent Institute of Chemical Technology, PhD in Technical Sciences

A.Turgunbaeva

Namangan State University, PhD in Psychological Sciences

B.Xaynazarov

National University of Uzbekistan, PhD in Historical Sciences

M.Voxidova

Tashkent State Institute of Oriental Studies, PhD in Economics

A.Rahmonov

Republican Scientific-Practical Center, PhD in Pedagogical Sciences

Масъул котиб

Тусматова Нозима Иномовна

Тахририят

З.Яхшиева

Жиззах давлат педагогика институти, кимё фанлари доктори

S.Sangwa

African Leadership University, Doctor of Business Administration

С.Отакулов

Жиззах политехника институти, физика-математика фанлари доктори

M.A.S.Khasawneh

King Khalid University, Special Education, PhD

Ш.Акрамова

Миллий гвардия ҳарбий-техник институти, педагогика фанлари доктори

E.M.Colocassides

College of Tourism & Hotel Management, Doctor of Science in Communication

Б.Султонов

Тошкент фармацевтика институти, техника фанлари доктори

A.Сидиков

Тошкент кимё-технология институти, кимё фанлари доктори

Б.Кучаров

Фанлар академияси Умумий ва ноорганик кимё институти, техника фанлари доктори

И.Эшметов

Фанлар академияси Умумий ва ноорганик кимё институти, техника фанлари доктори

M.Abdullaev

Андижон давлат университети, тарих фанлари доктори

З.Тожиева

Ўзбекистон миллий университети, География фанлари доктори

Н.Жиянова

Тошкент молия институти, иқтисод фанлари номзоди

X.Qobulov

Тошкент молия институти, иқтисод фанлари номзоди

A.Nabiev

Тошкент кимё технология институти, техника фанлари PhD

A.Turgunbaeva

Наманган давлат университети, психология фанлари PhD

Б.Хайназаров

Ўзбекистон миллий университети, тарих фанлари PhD

M.Voxidova

Тошкент давлат шарқишунослик институти, иқтисодиёт фанлари PhD

A.Rahmonov

Республика илмий-амалий марказ, педагогика фанлари PhD

TABLE OF CONTENTS / МУНДАРИЖА

1.	Azamat Ruzvonovich Raxmonov O'quvchilarni ta'limda ijtimoiy pedagogik moslashuvchanligida ota-onalarning rolini oshirish	6
2.	A.Қ.Лутфуллаев Ёшлар тарбияси ва мусика санъати	16
3.	Ш.Абдужалилова Умумий ўрта таълим ўқувчиларини мафкуравий тарбиялаш омиллари	24
4.	Sardor Mardanaqulovich Abduxamidov, Jasurbek Muradovich Narimanov Ta'lim menejmentining funksiyalari va bugungi kundagi o'rni	31
5.	M.A.Asadullaeva Inklyuziv ta'limda musiqa terapiya	40
6.	A.A.Бурханов, М.М.Абдужалилова Лексические особенности просторечия русского языка	49
7.	Жамшид Файзуллаевич Равшанов Методы формирования ключевых компетенций на уроках истории	59
8.	Fotima Uralovna Jumanova Янги Ўзбекистон таълим тизимида амалга оширилаётган ислохотлар	67
9.	М.Ш.Исламова Касбий дунёқарашни шакллантириш асослари	78
10.	О.А.Йўлдошев Бошланғич синфларда техноген цивилизациядан фойдаланишнинг педагогик шарт-шароитлари	88
11.	Ж.С.Қаюмов Шашмақомга бахшида умр	98
12.	Ikrom Davronovich Qodirov Tarix fanini o'qitish samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish	106
13.	Мафтуна Қурбонова Мустақил ишларни ташкил этиш асосида ўқувчиларнинг ўқиш ва тушуниш даражасини шакллантириш методикаси	114
14.	Sh.R.Mahkamova Insoniyat evolyutsiyasida musiqa san'atining tutgan o'rni	125
15.	С.Р.Мирзаева Талаба валеологик онгининг психологик ҳимоя механизмлари билан детерминантлашуви	133
16.	Г.Мирзарахимова Бўлажак ўқитувчиларни тайёрлашда мустақил таълимнинг ўрни	144
17.	Малоҳат Саиджабборовна Мухитдинова Мусиқа таълимида компьютер дастурларни қўллаш	152
18.	Насиба Холбоевна Элмурзаева, Аширбек Мустафаевич Суяров Самообразование личности в процессе профессиональной подготовки студента	161
19.	Н.Ж.Эшнаев Суицид ва унинг ижтимоий-психологик омиллари	172
20.	Tolib Turgunovich Nazarov, Aziza Mirzabekovna Sayupova Maktabgacha yoshdagi bolalarni kreativ fikrlashga o'rgatishning psixologik aspektlari	180
21.	Одил Файбуллаевич Юнусов Бўлажак мусиқа ўқитувчиларнинг касбий компитентлигини ривожлантиришда вокал фанининг аҳамияти	189

22.	Р.Мусурманов, М.Шерматов Таълим муассасаси ва ота-она ҳамжиҳатлиги ўқув интизомининг омили сифатида	197
23.	М.Қ.Раҳманова, Баргида Баҳадировна Миржалилова Касб таълими талабаларининг педагогик интеграция асосида ижтимоий мослаштириш омиллари	206
24.	С.Р.Абдалова Таълим сифатини оширишда ўқитиш технологияларининг ўрни ва роли	218
25.	А.М.Суяров, К.М.Хуррамов Молия тизими ва молиявий сиёсатда пул кредит тизими, банклар ва уларнинг бозор иқтисодиётидаги роли	229
26.	М.ДЖ.Тошов Развитие здоровьесберегающей компетенции специалистов профессионального образования	238
27.	Б.Н.Тўрақулов, Р.М.Бахтиёров Мутахассисларни тайёрлашда касбий фаолиятнинг ўзига хос хусусиятлари	245
28.	Жаббор Эшбекович Усаров, Акбар Номозович Расулов Иқтисодий билимларни шакллантириш давр талаби	255
29.	Ж.Э.Усаров, С.Ҳайдарова Фанни компетенциявий ёндошув асосида ўқитишнинг ўқувчи ёш психологик хусусиятларига боғлиқ жиҳатлари	266
30.	Ж.Э.Усаров, Г.Н.Шарипова, Ш.С.Абдусаматова Таълим самарадорлиги ва унинг амалиётдаги аҳамиятида талабаларнинг ўзини ўзи ривожлантириш компетентлигининг ўрни	276
31.	Ж.Э.Усаров, Л.Г.Бобоходжаева, Н.Юсупова Аралаш таълим шакли - педагогик таълим кластерининг замонавий ёндашуви сифатида	286
32.	Akram Yo'ldoshevich O'tayev Talabalar siyosiy madaniyatini takomillantirish omillari	296
33.	M.M.Xalilova, G.A.Isoqova Musiqqa madaniyati darslarida musiqa savodi faoliyati	306
34.	Фарида Эгамбердиева, Шахзода Эгамбердиева Инфографика - вербал медиаматнни креоллашган медиаматнга айлантирувчи восита	313
35.	G.O.Ernazarova Ta'lim muassasasining innovatsion faoliyatini joriy etish xususiyatlari	322

Insoniyat evolyutsiyasida musiqa san'atining tutgan o'rni

Sh.R.Mahkamova

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada insoniyat vujudga kelishi va uni rivojlanib taraqqiy topishida musiqaning o'rni va ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Bayon etilgan ma'lumotlar o'z navbatida, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Al-Farobiy kabi buyuk ajdodlarimizning musiqaga bildirgan fikrlari bilan boyitilgan.

Kalit so'zlar: estetik, arfa, dutor, doira, rubob, yovvoyi, musulmon Renessansi, emotsiya.

The role of music in the evolution of mankind

Sh.R.Mahkamova

Chirchik State Pedagogical Institute of Tashkent region

Abstract: This article provides an overview of the role and importance of music in the evolution and development of humankind. The information provided, in turn, is enriched with music by our great ancestors, such as Ibn Sina, Alisher Navoi, Al-Farabi.

Keywords: aesthetics, harp, dutar, circle, rubab, wild, Muslim renaissance, emotion.

Insonning ma'naviy shakllanishida oilaning, maktabning, jamiyatning ahamiyati katta. Chunki insonning insoniylik xususiyatlari jamiyatda tarkib topadi. Yosh avlodni kamolot sari yetaklashda tarbiyani ko'plab omillari qatori musiqa tarbiyasi alohida o'rin tutadi. Musiqa madaniy hayotimizda keng o'rin tutgan, inson shaxsiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan san'at turidir. Musiqa tarbiyasi nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo'lib, insonni atrofdagi go'zal narsalarni to'g'ri idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi. Haqiqiy musiqa asarlari zamonning estetik-axloqiy va siyosiy g'oyalarini umumlashtiradi. Inson hayotini musiqa san'atisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. San'at kishilarga faqatgina ma'naviy ozuqa beribgina qolmasdan, jismoniy kamolotga erishuvda ham muhim o'rin tutadi. Musiqa san'atining axloqiy-estetik tarbiyadagi rolini to'g'ri his etib, uning yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyatini aslo unutmaslik zarur. Musiqiy go'zallik insonning ma'naviy qiyofasi shakllanishida muhim omildir.

Bola musiqa bilan ona allasi orqali tanishib, musiqadan umrbod ozuqa oladi. Donishmand xalqimiz azal-azaldan kuy va qo'shiqni bola qalbiga tez yo'l topa olishi, uning ruhiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, yaxshi xulq va odob, mehr oqibat, sabr-toqat, kattalarga hurmat fazilatlarini musiqa orqali tarkib topishini azaldan anglab yetgan. Oilada farzandni qo'shiq aytishga, soz chalishga o'rgatish ota-ona orzusi hisoblangan. Chunki bola hali yurishni, so'zlashni bilmay turib, musiqani eshitib, turli qo'l harakatlari bilan musiqaga munosabatini bildiradi. Shuning uchun qadimdan har bir oilada musiqa cholg'u asboblardan dutor, doira, rubob saqlash urf-odat bo'lib qolgan. Musiqadan ozuqa olish uchun esa, inson sof qalb egasi, yuksak ma'naviyatli, go'zallikni his eta oladigan inson bolishi kerak. "Har qanday jamiyatning kelajagi yoshlar ekan, kelajagi buyuk davlatni barpo etilishi, ularni qanday tarbiya olishiga bog'liq. Chunki ma'naviy jihatdan qudratli davlat, ijtimoiy jihatdan kuchli bo'ladi!" deb ta'kidlaganlar Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov.

Musiqa go'zallikka intilish, estetik ehtiyoj tug'ma xislat emas. U insonda mehnat va atrof-tevarakdagi olamni ta'sirida paydo bo'lgan. Tashqi olamni o'zgartirish bilan insonning o'zi ham o'zgarib bordi, bunda faqat u jismoniy jihatdangina taraqqiy qilib qolmay, balki ma'naviy jihatdan ham taraqqiy etdi. Insonning ma'naviy qobiliyati va avvalo, estetik hissi asta-sekin taraqqiy etib, tarbiyalanib boradi. Musiqa san'ati hayotni bilish va inson tarbiyasining qudratli vositasidir. Ammo uning bilish va tarbiyalashdagi xizmat darajasi kishiga estetik, badiiy jihatdan ta'sir etish kuchiga bog'liqdir. Musiqa san'ati kishi faoliyatining muayyan bir turi bo'lib, uning vazifasi jamiyatga estetik xizmat ko'rsatishdir. Shu ma'noda uning o'rnini hech bir narsa bosa olmaydi. Musiqa ijtimoiy hayotning hamma sohalarida faol sur'atda o'rin oladi. Shunday qilib, voqelikka bo'lgan estetik munosabat bastakorlar tomonidan yaratilgan musiqa asarlarida ham, mehnatga, maishiy hayotga va odamlar munosabatiga olib kiriladigan badiiy asoslarda ham ifodalanadi.

Har bir san'at turi singari musiqa san'ati ham juda qadim zamonlarda, odamlar g'orlarda yashab, tosh qurollaridan foydalanib, hayvon terilarini yopinib yurgan o'tmish davrlarida paydo bo'lgan. Unda odamlarning ma'naviy dunyosi cheklangan, tili kambag'al, atrofdagi voqea - hodisalar haqidagi tasavvurlari juda noaniq edi. Lekin shunga qaramay musiqiy asarlarni, garchi u asarlar "yovvoyi" holatda bo'lsada, qadimgi odamlar yaratgan. San'atning deyarli hamma turlari minglab yillar ilgari vujudga kelgan. San'at qandaydir birgina yerdagina emas, balki bir yo'la bir necha qit'alarda, turli kengliklar, iqlim sharoitlarida paydo bo'ldi. Qoyalardagi juda qadimgi zamon tasvirlari Afrikada ham, Ispaniyada ham, Onega ko'li qirg'oqlarida ham, Xitoyda ham topildi. Qadimgi Yunonistonda "musiqa bilan davolash ilmi" keng taraqqiy etgan. Masalan: *matematik va faylasuf Pifagor musiqani kishi ruhiga va tanasiga har tomonlama davo bo'ladigan vosita sifatida tavsiya etgan*. Aytishlaricha,

Iskandar Zulqarnayn ham ko'p ishlami musiqa sadolari ostida bajargan. O'zbek xalqi yaratgan musiqiy merosning ildizlari juda uzoq asrlarga borib taqaladi. Ajdodlarimizning maftunkor tasviriy san'ati tufayli bizgacha yetib kelgan yodgorliklar o'zbek cholg'u musiqasi qadim zamonlardan boshlanganligini ko'rsatadi. Ko'xna Afrosiyobda olib borilgan qazilmalarda qo'lida surnay ushlagan haykalcha topilgan. Olimlar bu haykalchani eramizdan, ya'ni miloddan avval III-I asarlarda yaratilgan, deb tahmin qilmoqdalar. Ayritosh nomi bilan fanda mashhur bo'lgan nodir yodgorliklar, Sulton Uvays tog'ining janubiy tizmalari boshlanadigan tekislikdagi qadimiy To'proq qal'adan arfa chaluvchi ayol tasviri tushirilgan topilmalar olimlar fikricha, III-IV asrlarga mansub ekan. VIII-XII asarlarda Sharqshunoslik tarixida "Sharq yoki musulmon Renessansi" davri deb nom olgan davr Sharqda O'rta asrlardagi barcha taraqqiyotlarning eng yuksak cho'qqisi hisoblanadi. Abu Yusuf Yoqub ibn Is'hoq al-Kindiy, Abu Nasr ibn Muhammad al-Forobiy, Abu Ali ibn Sino va boshqalar shu davrning ajoyib vakillari bo'lganlar.

Al-Forobiyning musiqaga bag'ishlangan "Kitob ul-musiqiy al-Kabr" ("Musiqa haqida katta kitob") asarida yozilishicha, musiqa haqidagi fan amaliy va nazariy sohalardan iborat.

✓ *Birinchisi* musiqiy asboblarning yordamida musiqiy asarlarni ijro etishga oid soha.

✓ *Ikkinchisi* esa ohanglarning kelib chiqishi va musiqiy asarlarni yaratilish qonunlarini o'rganadi.

Forobiyning tabiricha san'at, shu jumladan, musiqa ilohiy ne'mat emas, balki inson ijodining mahsulidir. Uning vazifasi insonga o'z intellektual va axloqiy sifatlarini takomillashtirishda foydali bo'lishidan iborat.

Musiqa haqida *Abu Ali Ibn Sino* o'zining asarida yozgan. Bu "Kitob ash-shifo", ("Shifo kitobi") nomli ko'p jildlik qomusiy asaming musiqa haqidagi bo'limidir. Ibn Sinoning ta'rificha, san'at, jumladan, musiqa fandir. Bundan san'atning "aql bilan idrok etish" yoki "buyumlarning bilish" mohiyati kelib chiqadi. Ibn Sino musiqaning tarbiyaviy mohiyatini alohida ta'kidlab o'tgan. Bunda san'at vositasi orqali estetik didni tarbiyalashga asosiy e'tibor qaratilgan. Buyuk olim ta'kidlaydiki, shaxsni har tomonlama kamol toptirish uchun ikki tomonlama-jismoniy barkamollik uchun jismoniy mashqlar, ma'naviy rivojlanishi uchun *musiqa* va boshqa san'at turlari orqali ta'sir o'tkazish lozim.

She'riyat mulkingning sultoni Alisher Navoiy nozik ta'b, yuksak zakovat egasi sifatida musiqani sevib tinglar, dil-dildan zavqlanardi. Shoir talantli san'atkorlarga hamisha g'amxo'rlik qildi, yoshlarning kamoloti uchun tinmay qayg'urdi. Insoning kamolotga yetishuvida asosiy rol o'ynovchi vositalardan biri - musiqa san'atidan bahramand bo'lish deb bildi. "*Musiqani idrok etmagan shoir nim shoirdir*", - deydi, A.Navoiy. Bu kalima shoir estetik qarashlarining mohiyatini yaqqol ko'rsatadi. O'zbek xalqi hayotidagi murakkab tarixiy sharoitlar madaniyat va turmushning

feodal me'yorlari doirasidan tashqari chiqish imkonini bermagan. Asrlar davomida yig'ilgan oddiy va ma'naviy boyliklarni bosqinchilar egallab olgan yoki yo'q qilib tashlashgan. Qilich va zo'rlik o'zbek xalqining ko'pgina madaniy boyliklarini yo'q qilib yubordi. Lekin shunga qaramasdan davrlar osha, tarixiy davrlar osha xalqning qimmatli madaniy merosi shu kunlarga yetib keldi.

Ongli mehnat jarayonida inson tafakkuri takomillashdi va taraqqiy etdi. His-tuyg'ularni, kayfiyat, ehtirolarni ifodalash musiqaning eng kuchli xususiyatiga aylandi. Kishining his va kayfiyati o'z-o'zicha namoyon bo'lmaydi. Kishining his va kayfiyatlari manbai real hayotdir. Biz vaziyat ta'siriga ko'ra yo g'am chekamiz, yoki xursand bo'lamiz, g'azabimiz oshadi, yoki shodligimiz ichimizga sig'maydi, yoki ranju-alam chekamiz. Binobarin, agar musiqa bunday his-tuyg'ularni ifodalar ekan, demak, u voqelikni aks ettiradi. Ammo musiqa mazmunini muayyan bir hislar ifodasidan iborat qilib qo'yish yaramaydi. Musiqa, shuningdek, fikrlarni o'zida mujassamlantirishga ham qobildir. Musiqiy merosni asrash tushunchasining mohiyati shunchaki o'tmish g'oyalarini ko'r-ko'rona takrorlash va saqlash emas, balki uni ongli dunyoqarash va insoniyat manfaatlari nuqtai nazaridan rivojlantirish, tanqidiy o'zlashtirish va ijodni qayta ko'rib chiqish zarurligini bildiradi. Kompozitorlarimizning xalq musiqa san'atini ijodiy o'rganishi natijasida o'zbek madaniyati xazinasiga bebaho dur bo'lib qo'shilgan san'at asarlari vujudga keldi. Go'zallikka tashnalik sezgan inson qalbidan, yurak to'ridan o'rin olgan qo'shiqlar kompozitorlar ijodini shakllanishida fundamental asos sanaladi.

Xulosa qilib, musiqa voqelikni alohida, faqat unga xos shaklda aks ettiradi, jamiyat va zamonning asosiy g'oyalarini, kishilar munosabatidagi eng muhim narsalarni ifodalaydi. Musiqa voqelikni falsafiy umumlashtirilgan asosda anglaydi. Har bir kompozitor ijodida u yashayotgan zamonning, davrning qandaydir xususiyati o'z ifodasini topadi. Musiqaning kishilarga ta'siri juda kuchlidir, chunki u kishilar his-tuyg'ularini o'ziga maftun etadigan, yuksak emotsional san'atdir. Musiqa kishiga ilgari uncha ma'lum bo'lmagan ajoyib yuksak tuyg'ularni ochib beradi, u kishini o'zgartirib yuborishga, uning qalbini noziklashtirishga, ruhan boyitishga qodir. Musiqa inson ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lib, uni nafosat olamiga olib kirish va axloqiy g'oyaviy tarbiyalashni muhim vositasidir. Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va unga ma'naviy ozuqa beradi. Shuningdek, musiqa insonni go'zallikka yetaklovchi bir vosita bo'lib, u insonning estetik va emotsional xususiyatlarini shakllantiradi. Shuning uchun ham musiqani inson tabiatidagi barcha yaxshi hislatlarning ifodasi deb bekorga aytmaganlar. Musiqani sevgan kishi ruhan boyiydi, qalban noziklashadi, ma'naviyati yuksaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. T.Ortiqov. Musiqa o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. T.2010 y.

2. Mannonov S. O'zbek xalq musiqa madaniyati. Monografiya.
3. H.Nurmatov, N.Yo'ldosheva « O'zbek xalq musiqasi ijadiyoti» o'quv qo'llanma. - T .:«G'ofur G'ulom» nashriyoti, 2007 y.
4. Маҳкамова, Ш. Р. (2020). ХАЗРАТ НАВОИЙНИНГ МУСИКИЙ ТАФАККУРИ. Science and Education, 1(Special Issue 4), 215-222.
5. G. Sharipova «Musiqqa metodikasi». - T.« O'zbekiston faylasuflar» nashriyoti, 2012 y
6. Маҳкамова, Ш. Р. (2020). МУСИҚА ИЛМИ ВА ИСЛОМ ДИНИ: ТАЛҚИН МУАММОСИ. Academic research in educational sciences, (3).
7. Асадуллаева .М.А. “Халқ таълими” Ёшларни маънавий тарбиялашда қўшиқчилик санъатининг тутган ўрни. 2020-№3
8. Махкамова, Ш. Р. Асадуллаева, М. А. (2020). «ВЕЛИКИЙ ШЁЛКОВЫЙ ПУТЬ»: ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ КУЛЬТУР ЗАПАДА И ВОСТОКА В КОНТЕКСТЕ ПРОБЛЕМЫ МОДЕРНИЗАЦИИ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ. Science and Education, 1(Special Issue 4).
9. Халилова Махфуза “SAN'AT – MOJIZADIR” SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL. SPECIAL ISSUE 4 169-176
10. USAROV J. E. INKLYUZIV TA'LIMNING NAZARIY VA KONTSEPTUAL MASALALARI //INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. – 2021. – Т. 1. – №. 02. – С. 37-46.
11. Usarov J. E. Formation Competence at Pupils as the Factor of Increase of Education's Efficiency //Theoretical & Applied Science. – 2017. – Т. 53. – №. 9. – С. 79-82.
12. Usarov J.E. O'quvchilarning malakasini shakllantirish Ta'lim samaradorligini oshirish omili sifatida // Nazariy va amaliy fan. - 2017. - Т. 53. - №. 9. - С. 79-82.
13. Usarov J. Using Teaching Methods for Development Student Competencies //International Journal of Progressive Sciences and Technologies. – 2019. – Т. 15. – №. 1. – С. 272-274.
14. Usarov J. E. Competent Approach for Teaching Physics in Secondary and Post-secondary Educational Institutions //Eastern European Scientific Journal. – 2016. – №. 3.
15. Ravshanov J. F. The importance of working with terms and concepts in teaching history. – 2020.
16. Ravshanov J. F. Some methods of working with historical concepts in history lessons //Международная научно-рецензируемая онлайн конференция «Современная психология и педагогика: проблемы, анализ и результаты. – 2020. – Т. 1. – №. 2. – С. 439-443.

17. Fayzullayevich R. J. FORMATION OF KEY COMPETENCIES IN HISTORY LESSONS.

18. Равшанов Ж. Ф. НЕКОТОРЫЕ МЕТОДЫ РАБОТЫ С ПОНЯТИЯМИ И ТЕРМИНАМИ НА УРОКАХ ИСТОРИИ //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. Special Issue 4.

19. Fayzullayevich R. J. IMPORTANCE OF CLASSIFICATION OF HISTORICAL TERMS AND CONCEPTS.

20. Мусурмонов Р., Мусурманова М. Ўқитувчиларнинг касбий компетентлигини ривожлантиришда инновациялар //Academic research in educational sciences. – 2020. – №. 3. – С. 777-783.

21. Юнусов О. ЎЗБЕК МИЛЛИЙ САНЪАТИНИ ЎҚУВЧИ-ЁШЛАРНИНГ ОНГИГА СИНГДИРИШ ЙЎЛЛАРИ //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. Special Issue 4.

22. Туракулов Б. Н. РОЛЬ ИНДИВИДУАЛЬНЫХ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ В ДИСТАНЦИОННОМ ОБУЧЕНИИ СТУДЕНТОВ //European science. – 2020. – №. 3 (52).

23. Халилова М. А., Мухитдинова М. Мактабгача таълим ташкилотларида ахборот-компьютер технологияларини мусика тарбияси воситаси сифатида куллашнинг хусусиятлари //Халқ таълими. – 2020. – Т. 3. – №. 0056. – С. 4.

24. Эрназарова Г. О. Применение акмеологического подхода //Молодой ученый. – 2020. – №. 18. – С. 533-536.

25. Рахманова М. Қ. ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ЎҚУВ МУНОЗАРАЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА ЎҚИТУВЧИНИНГ ПЕДАГОГИК МАҲОРАТИ, ИЖОДҚОРЛИГИ ВА ФАОЛЛИГИ //Oriental Art and Culture. – 2020. – №. IV.

26. Курбонова М. Ф. Ёшларда креатив тафаккурни шакллантиришнинг педагогик асослари //Халқ таълими. – 2020. – Т. 3.

27. Rustamovna M. S. Psychological features of attitudes of students to their own health in conflict situations. journal of critical reviews. – ISSN-2394-5125 VOL 7, 2020. – №. 17. – С. 3071-3076.2020.

28. Haydarova S. et al. MIRZACHO'L O'LKASIDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI //Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020.

29. Эгамбердиева Ш. Д., Эгамбердиева Ф. О. РЕКЛАМНЫЙ ТЕКСТ КАК ОСОБЫЙ ВИД ДИСКУРСА //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 1.

References

1. T.Ortiqov. Methods of teaching music. Study guide. T.2010 y.

2. Mannonov S. Uzbek folk music culture. Monograph.
3. H.Nurmatov, N.Yuldasheva Textbook "Creativity of Uzbek folk music". - T. : Ghafur Ghulam Publishing House, 2007.
4. Mahkamova, Sh. R. (2020). THE MUSICAL THINKING OF HAZRAT NAVAI. Science and Education, 1 (Special Issue 4), 215-222.
5. G. Sharipova "Methods of music". - T. "Philosophers of Uzbekistan" Publishing House, 2012
6. Mahkamova, Sh. R. (2020). THE SCIENCE OF MUSIC AND THE RELIGION OF ISLAM: THE PROBLEM OF INTERPRETATION. Academic research in educational sciences, (3).
7. Asadullaeva .M.A. The role of the art of singing in the spiritual education of young people. 2020-№3
8. Makhkamova, Sh. R. Asadullaeva, M. A. (2020). "GREAT SILK ROAD": INTERACTION OF CULTURES OF WEST AND EAST IN THE CONTEXT OF THE PROBLEM OF MODERNIZATION OF MUSICAL EDUCATION IN UZBEKISTAN. Science and Education, 1 (Special Issue 4).
9. Khalilova Mahfuza "ART IS A MIRACLE" SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL. SPECIAL ISSUE 4 169-176
10. USAROV J. E. THEORETICAL AND CONCEPTUAL ISSUES OF INCLUSIVE EDUCATION // INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. - 2021. - T. 1. - №. 02. - C. 37-46.
11. Usarov J. E. Formation Competence at Pupils as the Factor of Increase of Education's Efficiency // Theoretical & Applied Science. - 2017. - T. 53. - №. 9. - S. 79-82.
12. Usarov J.E. Formation of students' skills as a factor in increasing the effectiveness of education // Theoretical and practical science. - 2017. - T. 53. - №. 9. - P. 79-82.
13. Usarov J. Using Teaching Methods for Development Student Competencies // International Journal of Progressive Sciences and Technologies. - 2019. - T. 15. - №. 1. - C. 272-274.
14. Usarov J. E. Competent Approach for Teaching Physics in Secondary and Post-secondary Educational Institutions // Eastern European Scientific Journal. - 2016. - №. 3.
15. Ravshanov J. F. The importance of working with terms and concepts in teaching history. - 2020.
16. Ravshanov J. F. Some methods of working with historical concepts in history lessons // International scientific-peer-reviewed online conference

“Contemporary psychology and pedagogy: problems, analysis and results. - 2020. - T. 1. - No. 2. - S. 439-443.

17. Fayzullayevich R. J. FORMATION OF KEY COMPETENCIES IN HISTORY LESSONS.

18. Ravshanov Zh. F. SOME METHODS OF WORK WITH CONCEPTS AND TERMS IN HISTORY LESSONS // Science and Education. - 2020. - T. 1. - No. Special Issue 4.

19. Fayzullayevich R. J. IMPORTANCE OF CLASSIFICATION OF HISTORICAL TERMS AND CONCEPTS.

20. Musurmonov R., Musurmanova M. Innovations in the development of professional competence of teachers // Academic research in educational sciences. - 2020. - №. 3. - S. 777-783.

21. Yunusov O. WAYS TO INCLUDE UZBEK NATIONAL ART IN THE MIND OF STUDENT-YOUNG PEOPLE // Science and Education. - 2020. - T. 1. - №. Special Issue 4.

22. Turakulov BN ROLE OF INDIVIDUAL INTELLIGENT PECULIARITIES IN DISTANCE LEARNING STUDENTS // European science. - 2020. - No. 3 (52).

23. Xalilova M. A., Muxitdinova M. Features of the use of information and computer technology as a means of music education in preschool education // Halts education. - 2020. - T. 3. - №. 0056. - C. 4.

24. Ernazarova GO Application of the acmeological approach // Young scientist. - 2020. - No. 18. - S. 533-536.

25. Raxmanova M. Q. PEDAGOGICAL SKILLS, CREATIVITY AND ACTIVITY OF A TEACHER IN ORGANIZING LEARNING DISCUSSIONS IN THE EDUCATIONAL PROCESS // Oriental Art and Culture. - 2020. - №. IV.

26. Kurbonova M. F. Pedagogical bases of formation of creative thinking in youth // Halts education. - 2020. - T. 3.

27. Rustamovna M. S. Psychological features of attitudes of students to their own health in conflict situations. journal of critical reviews. - ISSN-2394-5125 VOL 7, 2020. - №. 17. - S. 3071-3076.2020.

28. Haydarova S. et al. MIRZACHO'L O'LKASIDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKON1YATLARI // Archive of Scientific Publications JSPI. - 2020.

29. Egamberdieva Sh. D., Egamberdieva FO ADVERTISING TEXT AS A SPECIAL KIND OF DISCOURSE // Academic research in educational sciences. - 2021. - T. 2. - No. one.